

---

## TOSHLOQ TUMANIDA KUZ-QISH MAVSUMIGA TAYYORGARLIK ISHLARI DAVOM ETMOQDA

Toshloq tumanida iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohalarni 2023-2024 yillar kuz-qish davrida barqaror ishlashga tayyorlash borasida hududlarda tayyorgarlik ishlari olib borilmoqda. Bu borada tumanda ishchi guruhlar tashkil etilib, mavsumga tayyorgarlik ishlari qat'iy nazorat qilib borilmoqda.

Kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ishlari tuman elektr ta'minoti korxonasi tomonidan keng qamrovda amalga oshirilmoqda. Tadbirlar-rejasiga ko'ra, aholi yashovchi punktlarda havo liniyalari daraxt shoxlaridan tozalanib, mavjud transformatorlar joriy ta'mirdan chiqarilmoqda. Natijada elektr energiyasining sifatli ta'minlanishiga erishilmoqda.

Toshloq tumani elektr ta'minoti korxonasida kuz-qish mavsumini betalafot o'tkazish bo'yicha joylarda qo'shimcha avariya-tiklash brigadalari faoliyati tashkil etilib, ehtiyot qismlar zaxirasi shakllantirilgan.

2023-11-02 10:04:19